

## QISHLOQ VA JOY NOMLARINING KELIB CHIQISHI; TARIXIY VA LINGVISTIK TAHLIL.

Nurboyeva Gulyora Baxodir qizi

*O'zbekiston – Finlandiya Pedagogika institutining Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi  
1-bosqich talabasi*

Muxammadiyeva Diyora

*O'zbekiston- Finlandiya Pedagogika institutining Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedra  
o'qituvchisi va ilmiy rahbar*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada toponimikaning rivojlanish tendensiyasi, toponim va joy ta'rifi, Samarqand viloyati Past Darg'om va Nurobod tumanidagi ayrim joy nomlari tasnifi, nomlanish qonuniyatlari va tarixiy xususiyatlari, mahalla va qishloq nomlari shakllanishining tarixiy toponomiyasi va o'zgarish bosqichlariga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Samarqand, toponim, qishloq, toponomika, oykonimika, hidronomika, orohimika, qishloq, dasht zonalar.

**Abstrakt:** Bugunki kunda, zamon rivojlanishi natijasida joylarning soni va nomi o'zgarib borishi mumkin. Atrofdagi geografik nomlar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq o'zgarib turuvchi ob'ektlar hisoblanadi. Joy tushunchasi bu yer yuzasida joylashgan barcha ob'ektlar va bu ob'ektlar o'z ustida joylashgan reliefni o'zida mujassam etgan yer yuzasining kichik bir qismidir. [1]

Jumladan, bugungi kunda toponimlar-ya'ni joy nomlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Toponim so'zi [yunoncha topos – joy, makon, ohima- nom, ism] – har qanday geografik ob'ektning atoqli oti, nomi, jumladan, gidronim[suv nomlari], oykonim[[yunoncha oykos- uy, turar joy]]-turli aholi punkti; shahr, qishloq, ovul nomlari] [2] oronim [yer yuzasining, ya'ni har qanday orografik ob'ektlarning nomi; tog' tizmalari, vodiylar, tepaliklar, jarliklarning nomlari] [3], agroonim[[yunoncha agros- dala va nomos-qonun]-dehqonvchilik qonun-qoidalari haqidagi fan]. [4] va boshqalardan tarkib topadi. [5]. Toponimlar tarixni yoritish bilan birga biror hududning tabiiy sharoiti, siyosiy holati, aholining ijtimoiy kelib chiqishi, madaniy hayoti kabilar haqida ma'lumot beradi. Zero, "toponimlar- bu yerning tili". [6]. Bu o'z navbatida har bir viloyat, shahar, qishloq tarixining nomlariga aniqliklar kiritadi.

Shunga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hudidagi ma'muriy- hududiy birliklarning kelib chiqish tarixini turli sohalar yordamida to'liq o'rganish ishlari amalga oshirilmogda. Xususan, Samarqand viloyatining tarixiy toponimlarini o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Ko'plab toponim olimlarning fikriga tayangan holda, Samarqand viloyati



ko'p asrlik tarixga egaligi va uni yoritishda joy nomlarining ham o'ziga xos ahamiyatini ta'kidlash lozim. Ushbu viloyat 14ta tuman va har bir tuman ko'plab shaharchalar, okrug, qishloq va ovullardan tashkil topgan. Hozirgi maqolamizda biz 2ta tuman; Nurobod va PastDarg'om tumanlari chegarasida joylashgan 4 ta qishloq[ Qorayontoq, Gurji, Chimboy, Qo'yboqar] nomlarining kelib chiqishi haqida gaplashamiz. Bular orasida aksariyatlarining nomlarini kelib chiqishi tarixiy afsonalarga borib taqaladi. Masalan, Chimboy qishlog'i nomining kelib chiqishiga qarasak.

Chimboy.

Shahardan 40 km uzoqlikda joylashgan. Janub va sharq tomonlaridan Zarbdor, shimoldan Qorayontoq, G'arbdan Gurji qishloqlari bilan chegaradosh. Hozirgi kunda Qoraqolpog'iston Respublikasida bu nomdagi ko'plab tuman va ovullar ham mavjud. [7]. Bu nom asosan 2 qismdan iborat bo'lib, uning ma'nosi va tarixi haqida bir nechta nazariyalar mavjud.

1.Etimologik kelib chiqishi; "chim" va "boy" so'zlari;

A]"Chim"- 1]ot. ajriq. Masalan, Biz uchun ko'karar do'nglikdagi chim, Biz uchun yashaydi ko'kda yulduzlar. [Yoshlik]

2]Ajriqning ildizlari, poyalari bilan birga palaxsa-palaxsa qilib ko'chirilgan tuproq qatlami.

Masalan, Suvni chim to'xtatar, so'zni-chin. [maqol] [8].

"Chim" so'zi qadimgi turkiy tillarda "ho'l yer", "botqoqlik" yoki "yashil o't-o'lan bilan qoplangan hudud" ma'nosida ishlatilgan. Bu qishloq joylashgan hududning tabiiy-geografik sharoit bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

B]"Boy" – sifat. Mol-dunyosi ko'p; badavlat, davlatmand. Masalan, Chorakor choraklab olar, boy akam- botmonlab.[Maqol].[9]

"Boy" turkiy tillarda "boylik", "farovonlik", yoki "boy odam" ma'nosini bildiradi. Shunday qilib, Chimboy "yashil va boy hudud" degan ma'noni anglatadi.

Yuqoridagilarga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin; hozirgi kunda Chimboy qishlog'ining aholisi shevasida "ajriq" o'simligini "chim" sifatida aytilishiga guvoh bo'lamiz.

Bundan tashqari, qishloqda bir qancha botqoqliklarga ham duch kelishimiz tabiiy hol, albatta.

Bu nazariyalar ilmiy asosga ega bo'lishi uchun ko'proq lingvistik tadqiqotlarga ehtiyoj bor. Nafaqat bular balki, ushbu nomning kelib chiqishi bir necha rivoyatlarga borib taqaladi.

Masalan, Qadim zamonlarda Amudaryo bo'ylarida yashovchi qabila boshlig'i o'z xalqi uchun serhosil va yashash uchun qulay joy izlagan. U botqoqli va yam- yashil bir hududga yetib keladi va bu joyni ko'rib, unga "Chim" [botqoqlik] deb nom beradi. Qabilaning



boyli va farovonligini ko'zlab, odamlar bu yerga o'z qishloqlarini qurishadi. Yillar davomida bu hudud rivojlanib, "Chim" va "boy" so'zlari birlashib, "Chimboy" deb atalgan.

Boshqa bir rivoyatda esa, bu joyda yashagan boy savdogar o'z mulkini yanada kengaytirish maqsadida atrofdagi yerlarni sotib olib, qishloqning asoschisi bo'lgan. Uning nomi va hududining tabiati uyg'unlashib, joy nomiga aylangan.

Bu rivoyatlar ilmiy dalillarga asoslanmagan, ammo mahalliy aholi orasida keng tarqalgan bo'lib, Chimboyning tarixiy va madaniy o'tmishini tasavvur qilishiga yordam beradi.

Gurji.

Shahardan 42 km uzoqlikda joylashgan. Aholisining asosiy mashg'uloti paxta yetishtirish hisoblaniladi. Kolxozlashtirish davrida "Besh qahramon" paxta xo'jaligi tarkibida bo'lgan.

Etimologik kelib chiqishi;

"Gurji"- ot. Gruzin, qadimiy fors tilidan kelib chiqqan.[10]. Musilmon dunyosida Guruziya hududi va uning aholisini ifodalashda qo'llangan.

Hududdan tarixiy savdo yo'li - Buyuk Ipak yo'lining asosiy tarmoqlarining biri o'tganligi va Kavkaz hududidan ma'lum gruzin ko'chmanchi xalqlari kelib, bir necha yil bu yerda o'troqlashib qolganligi ushbu nomning kelib chiqishiga asos bo'lgan bo'lishi haqiqatga yaqindir.

Mahalliy aholidan bu haqida surishtirilganda, asli gruzinlik bo'lgan noma'lum xalqlar bu yerda ma'lum muddat yashaganligi va keyinchalik bu yerlar "gruzinlik" deb atalgani ma'lum bo'ldi. Xalq orasida musilmon xalqlarining ko'payishi sharofati bilan "gruzinlik" so'zi o'z o'rnini "gurji" so'ziga bo'shatib bergan.

"Qarayontoq" qishlog'i. Shahardan 46km uzoqlikda joylashgan. G'arb va shimol taraflardan Ishtixon shahri bilan chegaradosh. Aholisining asosiy mashg'uloti- chorvachilik.

So'zning etimologik kelib chiqishi;

"Qara" va "yontoq" so'zlari;

A] "Qara"- 1. Fe'l. Ko'rish uchun ko'zni biror tomonga yo'naltirmoq. Masalan, Hakimboyvachcha yalt etib ukasiga qaradi. [11]

2. Fikran nazar tashlamoq, ko'zdan kechirmoq, tekshirmoq. Masalan, Eshikning zanjiriga bir qarab kelingiz-chi, imon topkur Jannat ona. [12]

B] "yantoq"- 1. Ot. Dukkaklilarga mansub tikanli o'simlik. Bu o't qadimda turkiy tilda "alanga o't"- ma'nosini anglatgan." Yan" fe'lidan -daq qo'shimchasi bilan yasalgan deb taxmin qilinadi. Misol, Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'yinini cho'zadi. Maqol.[13]

Turkiy tillarda "qora" so'zi ba'zi hollarda kuchli va katta bo'lgan narsalarni ifodalagan. Shuningdek, qora tuproqli hududlarni ifodalashda ishlatilgan ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, xalq orasidagi bir hikoya ham inson diqqatini o'ziga qaratadi.



Qadimda hozirgi Qashqadaryo viloyatining ko'chmanchi aholisi o'zlari uchun qulay turar joy izlaganlarida, aynan shu hududlarga kelib qolishadi. Ular dashtlarni kezib, ichimlik suvi izlashadi va faqat yantoq o'simligiga duch kelishadi. Bizga ma'lumki, yantoq o'sgan joyda albatta suv topiladi. Yantoq o'sgan joyga qabila sardori borib, yerga tayog'ini suqqanida u yerdan otilib suv chiqib boshlaydi. Shundan so'ng esa, bu xalq ushbu joyga "Qara yantoq" deb nom berishadi.

Ilmiy faktlarga ko'ra, bu hududda qo'shni dasht qishloqlaridan ko'ra ko'proq suv mabayi mavjud va bu bilan bir qatorda boshqa qishloqlarning ham asosiy suv manbai aynan shu yerdandir. Bundan tashqari, aholisining asosiy qismi Qashqadaryoliklarning shevasida so'zlashishini [Ko'nargi[qatiq],ko'ktirnoq[ziqna],naymit[ pishiq-puxta kishi],chibich[echki sutidan qolgan uloq][14].] yuqoridagi afsonining dalili sifatida keltirish mumkin.

"Qo'yboqar" qishlog'i. Nurobod tumanining boshlanish joyida, Katta O'zbekiston traktining o'ng yoqasidan joylashgan. Aholisining asosiy mashg'uloti-chorvachilik.

So'zning etimologik kelib chiqishi;

"Qo'y" va "boq" so'zlari;

A] "qo'y"- 1. Jun, sut olish uchun boqiladigan juft tuyoqli sut emizuvchi uy hayvoni.

2. Muchal yil hisobida 8-yil nomi.[15]

B]"boq"- Nazar tashlamoq, nazar solmoq. Misol, Dengiz suvidek tiniq ko'zlari muloyim va mehr bilan boqardi. [16]

Bu qishloq ham yuqoridagilari kabi, dasht hududda joylashgan bo'lib, xalq tilidagi hikoyalarga ko'ra qadim bir zamonda bir cho'pon qo'ylari o'tlashi uchun turli dashtlarni kezib, oxiri shu hududdan o'ziga boshpana topadi. Hech kim yashamaydigan bu tepaliklarda u faqat qo'y-qo'zilar bilan birga hayot kechiradi. Oxir-oqibat esa, odamlar bu joyni "qo'y boqar ota" deb atay boshlashadi. Hozirgi kunga kelib esa, bu qishloq "Qo'yboqar" nomini olgan. Ammo biz uni ba'zi qipchoq-nayman shevalarida "quybog'ar" shaklidagi namunasini ham ko'ramiz.

Xulosa

Ushbu maqola davomida joy nomlarining kelib chiqishi, ular qanday omillar bilan shakllangani va ularning ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq nomlari ko'pincha geografik joylashuv, tabiiy resurslar, tarixiy voqealar yoki shu hududda yashagan qadimgi xalqlar bilan bog'liq. Joy nomlari mintaqaning o'ziga xos tarixiy xotirasi va madaniy merosi hisoblanadi. Ular faqatgina hududiy aniqlik uchun emas, balki o'tmish voqealari, mahalliy xalqlarning hayoti va e'toqodlarini tushunishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, joy nomlarini o'rganish orqali milliy va mahalliy tarixni chuqurroq anglash imkoniyati mavjud. Kelgusida qishloq va joy



nomlarining etimologiyasini yanada kengroq o'rganish, ularni mahalliy aholining urf-odatlarini va til xususiyatlari bilan bog'lab tahlil qilish zarur.

#### REFERENCES:

1. Navro'zov. R. M. Harbiy topografiya. – T. 2015 y, 4-bet.
2. Toponomika. Ziyoz.uz. com.
3. Abbasov Oxunjon Qayumjonovich. "Oronimlarning o'ziga xos xususiyatlari" maqolasi.
4. Wikipedia. Internet sayti.
5. X.N. Sa'dullayeva. "Toponimlarning mohiyati va terminologik tushunchalari xususida" maqolasi.
6. Hasanov. H. Yer tili. Oqituvchi, -T. 1997 y, 4-bet.
7. Wikipedia. CHimboy tumani.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. Izoh.uz.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. Izoh.uz.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. Izoh.uz.
11. Oybek. Tanlangan asarlar.
12. A.Qodiriy. O'tkan kunlar.
13. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild.
14. Yoshlik jurnali.uz. O'zMU talabasi, Dilbar Chorshanbiyeva.
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2022 y
16. S.Karomatov, Oltin qum.

